

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 12 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 12

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2024

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдйбоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети


Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

1. Nodira Babadjanova O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA IJTIMOIIY BARQARORLIK VA MAMLAKAT TARAQQIYOTINI TA‘MINLASHDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK – MUHIM OMIL.....	5
2. Laylo Begimqulova TEMURIY MALIKALARINING KELIB CHIQISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (Saroy Mulk xonim va Xadicha begim misolida).....	13
3. Abduvali Berdiyev O‘ZBEK XONLIKLARINING ERON, AFG‘ONISTON, TURKIYA VA HINDISTON DAVLATLARI BILAN O‘ZARO ELCHILIK ALOQALARI VA UNDAN KO‘ZLANGAN IQTISODIIY - SIYOSIIY MAQSADLAR.....	18
4. Alisher Jalilov SIYOSIIY ELITANING TURKISTONNI MILLIIY-HUDUDIIY CHEGARALANISHIGA MUNOSABATI VA O‘ZBEKISTON SSRning TASHKIL TOPISHI.....	27
5. Бахром Джалолов СОВЕТ ХУКУМАТИНИНГ БОЛАЛАРНИ ХУҚУҚИЙ ҲИМОЯЛАШ ТИЗИМИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР.....	33
6. Sherzod Djurakulov САМАРҚАНД МУЗОФОТИНИНГ ЮҚОРИ ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ ЁДГОРЛИКЛАРИ.....	39
7. Саховат Захидова ХОЖАГОНИЙЯ-НАҚШБАНДИЙЯ ТАРИҚАТИ “ҲИМОЙАТ” ТИЗИМИНИНГ СЎНГГИ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ИЖТИМОИЙ СИЁСАТИДАГИ ЎРНИ.....	44
8. Икрамжон Исмаилов ЎЗБЕКISTON ЁШЛАРИНИ ХОРИЖДА ТАЪЛИМ ОЛИШЛАРИДА ДАВЛАТНИНГ РОЛИ.....	49
9. Энажон Нишанбаева ИЖТИМОИЙ ШЕРИКЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ТАДРИЖИЙ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ (ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ МИСОЛИДА).....	57
10. Жамшид Пиримкулов ТОШКЕНТЛИК АДАБИЁТ ВА САНЪАТ НАМОЁНДАЛАРИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	63
11. Gulxayo Xasanboyeva O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGINING RIVOJLANISHI, TARMOQDAGI ISLOHOTLAR.....	69
12. Рашид Холмуродов ТАРИХЧИЛАР ТОМОНIDАН O‘LKAMIZ ETNOGRAFIYASI VA ETNIK TARIXINING O‘RGANILISHI.....	73



Gulxayo Ximmat qizi Xasanboyeva,
Fargʻona davlat universiteti
Tarix fakulteti Oʻzbekiston tarixi kafedrası
katta oʻqituvchisi
e-mail: Xasanboyevagulxayo29@gmail.com

OʻZBEKISTON QISHLOQ XOʻJALIGINING RIVOJLANISHI, TARMOQDAGI ISLOHOTLAR

For citation: Gulxayo Khasanboeva. DEVELOPMENT OF AGRICULTURE IN UZBEKISTAN, REFORMS IN THE NETWORK. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 12, pp.69-72

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14497543>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mustaqillikdan soʻng qishloq xoʻjaligidagi oʻzgarishlar, respublika iqtisodiyotida qishloq xoʻjaligining oʻrni va ahamiyati koʻrib chiqilgan. Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan sohaga oid qonunlar, prezidentimizning qaror va farmonlari haqida maʼlumotlar berilgan. Bundan tashqari bu sohani rivojlantirish boʻyicha amalga oshirilgan islohotlar, qishloq xoʻjaligi rivoji uchun taʼsir etuvchi omillar yoritib berilgan. Qishloq xoʻjaligidagi tarmoqlarning kengaytirilishi va oziq-ovqat mahsulotlari miqdorining koʻpayishi mamlakatni iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga olib kelishi taʼkidlangan.

Kalit soʻzlar: qishloq xoʻjaligi, yalpi ichki mahsulot, gʻalla, iqtisodiyot, dehqon, oziq-ovqat mahsulotlari, eksport.

Гулхая Хасанбоева,
старший преподаватель кафедры истории Узбекистана
исторического факультета
Ферганского государственного университета
электронная почта: Xasanboyevagulxayo29@gmail.com

РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ, РЕФОРМЫ В СЕТИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются изменения в сельском хозяйстве после обретения независимости, роль и значение сельского хозяйства в экономике республики. В статье дана информация о законах, принятых Кабинетом Министров, решениях и указах нашего президента. Кроме того, выделены реформы, проводимые для развития данной отрасли, факторы, влияющие на развитие сельского хозяйства. Было отмечено, что расширение отраслей сельского хозяйства и увеличение количества продуктов питания приведет к экономическому развитию страны.

Ключевые слова: сельское хозяйство, валовой внутренний продукт, зерно, экономика, фермер, продукты питания, экспорт, модернизация.

Gulkhayo Khasanboeva,

Senior Lecturer, Department of History of Uzbekistan,

Historical Faculty,

Fergana State University

Email: Xasanboyevagulkhayo29@gmail.com

DEVELOPMENT OF AGRICULTURE IN UZBEKISTAN, REFORMS IN THE NETWORK

ABSTRACT

This article examines changes in agriculture after independence, the role and importance of agriculture in the republic's economy. Information is given about the laws adopted by the Cabinet of Ministers, the decisions and decrees of the president. In addition, the reforms carried out for the development of this sector, the influencing factors for the development of agriculture are highlighted. It was noted that the expansion of agricultural sectors and the increase in the amount of food products will lead to the economic development of the country.

Index Terms: Agriculture, gross domestic product, grain, economy, farmer, food products, export, modernization.

Dolzarbligi:

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning yirik tarmoqlaridan biri hisoblangan qishloq xo'jaligiga katta e'tibor qaratilgan. Chunki, qishloq xo'jaligining rivojlanishi bevosita aholi farovonligini ta'minlaydi. Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarish vazifasi va jahonda oziq-ovqat mahsulotlariga talabning oshib borishi agrar sohani tubdan isloh qilishni, innovatsion va tejamkor texnologiyalarni, investitsiyalarni keng jalb qilishni taqozo etmoqda.

Qishloq xo'jaligidagi modernizatsiya jarayonlari mamlakatda dehqon va fermerlar daromadining oshishiga olib keladi. Shuningdek, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va unumdorlikning o'sishiga xizmat qiladi. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning salmoqli hissasi shu tarmoqning ulushiga to'g'ri keladi. Shu boisdan ham qishloq xo'jaligiga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida, aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash uchun bu sohaga katta e'tibor qaratildi.

O'rganish usullari va o'rganilganlik darajasi:

Mustaqillik yillarida bu sohani rivojlantirish uchun Respublikadagi Oliy Kengash tomonidan bir nechta muhim qarorlar qabul qilindi. Misol uchun 1990-yilning 20-iyunida qabul qilingan "Yer to'g'risida", 1991-yil 19-noyabrda "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida", 1992-yil 9-dekabrda "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida" va shuningdek, 1993-yil 6-mayida "Yer solig'i to'g'risida"gi qonunlarni keltirish mumkin. Bu qonunlar bo'yicha ancha ishlar amalga oshirildi. Xususan, paxta bilan birgalikda boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ruxsat berildi. Respublikada dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari ajratilgan maydonlardan samarali foydalanish, ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish yo'lga qo'yildi. Bundan asosiy maqsad aholining bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirishdan iborat. Shuningdek, sohaga oid turli adabiyotlar yaratildi. Masalan, R.X Ergashevning "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", S. Ochilov. Sh Ergashevaning "Qishloq va suv xo'jaligi statistikasi", X.B Shaumarov, S.Y. Islamovning "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va birlamchi qayta ishlash texnologiyasi" kabi adabiyotlarda qishloq xo'jaligining rivojlanish bosqichlari berilgan.

Tahlil va natijalar:

Hozirgi kunga kelib qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlariga e'tibor qaratilmoqda. Shu sababdan paxta bilan birgalikda boshqa mahsulotlar yetishtirishga keng yo'l ochilgan. O'zbekiston mustaqillikning dastlabki paytlarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish bo'yicha ko'plab qiyinchiliklarga uchragan. Xususan, SSSR davrida O'zbekiston hududi asosan paxta mahsuloti

yetishtirishga ixtisoslashgani boshqa mahsulotlarni yetishtirishga imkon bermasdi. Mustaqillikdan so'ng aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash asosiy vazifalardan etib belgilandi. Ushbu vazifa izchillik bilan amalga oshirilib takomillashtirib borildi. Ya'ni, aholi jon boshiga hisoblaganda 2000-yilda go'sht 34,1 kg.ni tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilga kelib 40,6 kg.ga yetdi[2;79]. Bugungi kunda respublikamizda yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlari dunyoning 60 dan ortiq mamlakatiga eksport qilinmoqda. Bunda meva-sabzavotlar va dukkakli mahsulotlarning eksport hajmi qariyb 2 barobarga oshgan. Tabiiyki, bunday natijalarga erishishda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan fermer xo'jaliklari, agroklastlar va meva-sabzavotchilik klasterlarining o'rni kattadir.

Yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, oxirgi yillarda agrar sohani isloh qilish, qishloq xo'jaligida mahsulotlar yetishtirishni rag'batlantirish maqsadida 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning kafolatli huquqlarini ta'minlash maqsadida tizimli ravishda qonunchilik hujjatlari takomillashtirilib borilmoqda. Masalan, 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-sonli O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmonga ko'ra tuproq-iqlim sharoiti, suv ta'minotidan kelib chiqib, respublikaning barcha tumanlari hududlari muayyan turdagi mahsulotlar yetishtirishga bosqichma-bosqich ixtisoslashtirilishi belgilandi[1]. Ayni shu farmonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish, dehqonchilik ko'nikmalarini shakllantirish ham kiritib qo'yilgan.

Ahamiyatlisi, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasining o'ziga xos murakkabligi mavjud. Mazkur holat e'tiborga olingan holda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan ishchi-xizmatchilarning mashaqqatli mehnatlarini qadrlashga alohida e'tibor qaratildi. Ya'ni, 2017 yil 25-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligi xodimlari kunini belgilash to'g'risida"gi Qonuni bilan dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi qishloq xo'jaligi xodimlari kuni etib belgilandi[7]. Buni mamlakatimizda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, sohaga bozor munosabatlarini joriy etish borasida keng ko'lamli islohotlarning ifodasi deb baholash mumkin.

Birgina misol, 2022-yilning o'zida fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarining yerlariga jami 1,5 mln. gektar shundan, asosiy maydonga 523 ming gektar, bog' va tok orasiga 130 ming gektar hamda g'alladan bo'shagan takroriy maydonga 830 ming gektar oziq-ovqat ekinlari ekilgan. Sabzavot mahsulotlari hosildorligini oshirish maqsadida 23 ming gektar intensiv usulda sabzavotlar plantatsiya shaklida ekilgan. Bunday mahsulotlar yetishtirishda samarali natija olish uchun asosiy omil sug'orish tizimi hisoblanadi. Shu maqsadda suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish davlat tomonidan rag'batlantirib kelinmoqda. Shuningdek, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalalari bo'yicha davlatlararo munosabatlar rivojlanmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatlarini o'rtasidagi do'stona muhit yaratilib, suv resurslarini birgalikda boshqarish mexanizmlari joriy etilmoqda.

Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlarning jumladan, Turkiya, Xitoy, Avstraliya, AQSH va boshqa davlatlarning ilg'or tajribalari qo'llanilib kelinmoqda. Bunda respublikamizda tomchilatib, yomg'irilatib va diskret kabi usullarda sug'orish, shuningdek, yerlarni lazer uskunali yer tekislagichlar bilan tekislash texnologiyalarini joriy qilinmoqda. Ushbu ishlarni tizimli va o'z vaqtida bajarib borilayotgani suv tanqisligi muammolarini hal etishga yordam beradi. Shu qatori qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda qulayliklar yaratishga, iqlim barqarorligini ta'minlashga aholini uzluksiz ravishda sifatli va arzon narxdagi oziq-ovqat mahsuloti bilan ta'minlash imkonini beryapti.

Qayd etish joizki, bundan bir necha yillar ilgari daromad topib, oilasiga nafi tegishi, xalqimiz dasturxonini to'kin bo'lishi uchun fuqarolarimizga yer berilishi haqida o'ylab ham ko'rmaganmiz. 2021-yilda paxta va g'alladan qisqartirilayotgan yer maydonlarida eksportbop qishloq xo'jaligi ekinlari ekishni ko'paytirish amaliyotga kiritilgan. Shuningdek, aholining keng qatlamlarini jalb qilish orqali ushbu yerlardan samarali foydalanish tizimi yaratildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish uchun yana bir muhim jihat mahsulotning

jahon standartlari talabiga javob berishi hisoblanadi. Hozirda bu yoʻnalishda ham sezilarli oʻzgarishlar koʻzga tashlanmoqda. Shu maqsadda Koʻplab dehqonlar, fermer xoʻjaliklari va qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini eksporti bilan shugʻullanuvchi tadbirkorlarga GLOBALG.A.P., Organic, HACCP kabi xalqaro sertifikatlar berilishi Yevropa bozorlariga yoʻl ochmoqda[4;168].

Xulosalar:

Xulosa qilib aytganda, rivojlanib borayotgan Oʻzbekiston sharoitida qishloq xoʻjaligini tubdan isloh qilish va agrar sohadagi kamchiliklarni bartaraf qilish asosiy vazifamiz boʻlib turibdi. Uning natijalari sohaning barqaror oʻsishini taʼminlashga va rivojlanishiga katta hissa qoʻshadi. Kelgusida bu respublika qishloq xoʻjaligi salohiyatini kengaytirishga yordam beradi va rejalashtirilganidek, Oʻzbekistonni qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilish boʻyicha jahon yetakchilari bilan yaqinlashtiradi. Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish qishloq xoʻjaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy ahvolini mustahkamlash, yerlardan samarali foydalanishni ragʻbatlantirish, shu jumladan meva-sabzavot va yem-xashak ekinlarini koʻpaytirish imkonini beradi. Bu oʻz navbatida qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmini hamda agrar sektorning eksport salohiyatini oshirishga imkon beradi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi „Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” gi PF-5853-son Farmoni [The Decree of The President of the Republic of Uzbekistan dated October 23, 2019, No. PF-5853 "On approval of the strategy for the development of agriculture of the Republic for 2020-2030".]
2. Ergashev R.X. Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyoti. – T.: Extremum Press. – 2011. [Ergashev R.Kh. Agricultural economy. - T.: Extremum Press. - 2011.]
3. Ismailov D. Qishloq xoʻjaligi tarmogʻining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi oʻrni va ahamiyati. Journal of science innovative research in Uzbekistan. Vol.1, Issue1, 2023. – 80-82 bet.[Ismailov D. The role of the agricultural sector in the economy of our country and importance. Journal of scientific innovative research in Uzbekistan. Vol.1, Issue1, 2023. – pp. 80-82.]
4. Muminov N., Abdirayimov A. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari. Academic Research in educational sciences. Vol.4, Issue 1, 2022. – 167-172 bet. [Muminov N., Abdirayimov A. Problems arising in increasing the export potential of agricultural products and their solutions. Academic Research in educational sciences. Vol.4, Issue 1, 2022. – pp. 167-172.]
5. NurmatovN.J, Roʻziyev O.A. Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyoti. – T.: Tafakkur, 2011. [NurmatovN.J, Roziyev O.A. Agricultural economy. - T.: Tafakkur, 2011.]
6. Yoʻldoshev M. Qishloq xoʻjaligini rivojlantirishda ishchi kuchidan ratsional foydalanish. – T.: Oʻzbekiston, 1982.[Yoldoshev M. Rational use of labor force in the development of agriculture. – T.: Uzbekistan, 1982.]
7. Shaumarov X.B, Islamov S. Y. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini saqlash va birlamchi qayta ishlash texnologiyasi. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Innovatsiya Ziyo, 2020. [Shaumarov Kh.B, Islamov S.Y. Technology of storage and primary processing of agricultural products. Study guide. - T.: Innovation Ziya, 2020.]
8. w.w.w.lex.uz
9. w.w.w.gazeta.uz
10. w. w.w. arxiv.uz

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 12 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 7, НОМЕР 12

LOOK TO THE PAST

VOLUME 7, ISSUE 12

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000